

INGLIZ TILINI O'QITISHDA CEFR DARAJALARINI TIL XUSUSIYATLARIGA KO'RA TAKOMILLASHTIRISH

Abdullayeva Charos Farxodovna

Guliston davlat pedagogika instituti

*Ijtimoiy gumanitar fanlar fakulteti O'zbek tili va tillarni o'qitish kafedrasi
ingliz tili fani o'qituvchisi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada bugungi kun ta'lif tizimida ingliz tilini o'qitishda tamoyillar va metodlatlamining xususiyatlari, CEFR darajalarini til hususiyatlariga ko'ra tamoyili haqida fikr-mulohazalar yuritilgan. Shuningdek, ingliz tilini o'qitish protsessida ta'lif metodlari mexanizmi haqida ma'lumot bayon etilgan.

Kalit so'zlar: funksional protsess, CEFR darajalari, intellektual aspekt, kasbiy samaradorlik, metod, usul, tamoyillar.

KIRISH

Hozirgi kunda ingliz tilini o'qitish va o'rgatishda zamonaviy pedagogik texnologiyalami qo'llash barcha ta'lif muassasalarida izchillik va bardavomiylik bilan rivojlanib bormoqda shu bilan bir qatorda keng ko'lamda tatbiq qilinmoqda. Natijada barcha ta'lif dargohlarida mashg'ulot xonalaming tobora xilma-xilligi oshib o'quvchi va o'quvchilarga boy imkoniyatlar yaratish bilan bir qatorda samarali o'qitish, o'rganish imkoniyatlarini keng ochmoqda. Butun dunyo bo'ylab ingliz tilini o'rganish soni kundan kun ortib borayotganligi sababli, muhim masala mavjud, barcha ta'lif muassasalarida mavjud resurs markazlari o'rganuvchilar uchun zarur qo'llanma materiallar zamonaviy metodlar asosida qamralgan manba shakllantrishni talab qiladi. Shuhbasiz, darsni ilmiy tashkil etishda muhim, hamda shu qatorda ko'chmas strategik poydevor qolipini yaratish ham zamon talabidir, bu esa o'z navbatida bir necha tamoyil va usullarga bo'linadi. Bundan maqsad, darsni yanada samaradorligini oshirishga qaratilgan e'tibordir.

Pedagog-o'qituvchilar tomonidan o'quvchilar ishtirokida mashg'ulot labaratoriyasida zamonaviy ta'lif metodlari asosida olib borilgan ta'lif jarayoni ikki sherikchilik asosidagi hamkorlik manbai hisoblanadi va yakuniy qismda kutilatgan

natijani yuzaga olib chiqish esa bu o'qituvchining kreativlik mahoratini aniqlab beradi. Mashg'ulotga nisbatan turli yondashuv nafaqat fikrlash salohiyatni kuchaytirib qolmasdan balki o'quvchining sohaga oid ko'nikmalarini (gapisht, yozish, o'qish, eshitish) keskin rivojlantirishga qaratilgan. "Interaktiv metodlaming ko'nikmalar bilan uzviy bog'lanishi dars mashg'ulotlarining qiziqarli va bir birini to'ldirgan holda izohlanadi. Buning uzviyligini ta'minlash shak-shuhbasiz pedagog - o'qituvchilaming o'z vazifasiga nisbatan ma'suliyatlik hamda mahorat bilan yondashishni talab qiladi".

TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI


Common European Framework of Reference for Languages qisqacha qilib **CEFR** yoki **CEF**, xorijiy tillarni bilish darajasini bildirish uchun ishlatiladi. U Yevropa Kengashi tomonidan 1989 va 1996 yillarda "Yevropa Fuqaroligi uchun Tillarni O'rganish" loyihasida doirasida ishlab chiqilgan. Bu tizim butun Yevropa bo'y lab til o'rgatish va baholash (test) uchun va butun dunyo bo'y lab esa Ingliz tilini o'rgatishda ishlatiladi. Bu o'lchovlar, boshqacha qilib aytganda CEFR darajalari, barcha tillar uchun ishlatilishi mumkin.

Bu tizimda 6 daraja bo'lib, tilni bilish boshlovchi (beginner)dan deyarli ona tilidek (proficient)ishlatadigan darajalarga bo'lib chiqilgan.

Barcha zamonaviy Ingliz tili kitoblari va Ingliz tili maktablari CEFR Ingliz tili darajalarini ishlatadi. Yangi ishga olishda so'raladigan rezyumelarda (CV, Europass CV) va boshqa Ingliz tilini bilish so'rovnomalarida ham CEFR darajalarini qo'llash tavsiya qilinadi. Bu yerda, biz til bilish darajangiz uchun CEFR talablarini boshqa xalqaro Ingliz tilini baxolash o'lchovlari - Cambridge ESOL, Canadian Language Benchmarks / Canadian English Language Proficiency Index Program (CLB/CELPPI), Canadian Academic English Language Assessment (CAEL), BULATS, IELTS and TOEFLga nisbatan ekvivalentini keltiramiz.

Quyida barcha darajalarni qisqacha ta'rifini ko'rishingiz mumkin. Bu sizga har bir darajada nimalar qila olishingiz kerakligi xususida tushuncha beradi degan umiddaman. Aslida bu ta'riflar qisqartirilgan, original xujjatda xar bir ta'rif ancha kengroq va muxtasarroq.

CEFR DARAJALARI TA'RIFI



1-rasm. Ingliz tili darajalari (CEFR, IELTS) darajalari.

A1 BEGINNER (BOSHLOVCHI)

- Barcha **tanish** (o'zi ham bilgan narsalar) birlamchi kundalik so'zlashuvdagi so'zlarni va juda asosiy iboralarni tushuna va ishlata oladi.
- O'zi va boshqalarni tanishtira oladi, shaxsiy ma'lumotlar masalan qayerda yashashi, kimlarni bilishi va o'zi ega bo'lgan narsalar haqida so'ray va javob bera oladi.
- Agar sherigi sekin va aniq gapirsa, javob berishga tayyor bo'lsa oddiy usulda **muloqot** qila oladi.
- **Grammarikadagi asosiy bilish kerak bo'lgan unsurlar:** odatiy sifatlar va payt ravishlari, going to, how much/how many, buyruq gaplar, I'd like, 's – possessive, o'rinni va vaqtning asosiy predloglari, xozirgi oddiy va davomli zamонlari, there is/are

A2 ELEMENTARY (QUYI)

- Gaplarni va kundalik so'zlashishdagi iboralar (masalan juda asosiy shaxsiy va oilaviy ma'lumotlar, bozorlik qilish, mahalliy jug'rofiya, ishga kirish va h.k)ni tushuna oladi.
- Oddiy va takroriy ishlar xususida muloqot qila oladi; tanish va takroriy masalalarda ma'lumot almasha oladi.

- O'zi haqida umumiy ma'lumoti, yaqin yon atrofi va yaqin ehtiyojidagi sohalardagi masalalarni oddiy so'zlar bilan ta'riflay oladi.

- **Grammarikadagi asosiy bilish kerak bo'lgan unsurlar:** sanaladigan/sanalmaydigan otlar, payt ravishlari, kelasi zamonlar will/going to, much/many, xozirgi tugallangan, o'tgan oddiy, o'tgan davomiy, odatiy iboralar, odatiy modallar: can/should

B1 INTERMEDIATE (O'RTA) IELTS 4

- Ish, o'qish yoki bo'sh vaqtidagi ko'p uchraydigan tanish masalalarda **O'qigan yoki eshitgan** standard ma'lumotlarni asosiy ma'nosini tushuna oladi

- Ingliz tilida gaplashiladigan yerga sayohat qilgandagi ko'p holatlarda ingliz tilini ishlata oladi.

- Tanish yoki qiziqqan mavzulardagi sodda bog'langan matnni yoza oladi.
- Tajriba va marosimlar, orzu, umid va niyatlarni, o'z fikri va rejaliari uchun qisqa tushuntirish va sabablar bera oladi

- **Grammarikadagi asosiy bilish kerak bo'lgan unsurlar:** tasdiq savol turlari, intensifiers: too/enough, kelasi zamonlar, o'tgan zamonlar, modallar, shart ergash gaplar, o'tgan zamondagi maxsus savollar

B2 UPPER-INTERMEDIATE (YUQORI O'RTA) IELTS 5-6

- Aniq va mavhum mavzulardagi murakkab matndagi asosiy fikrlarni,o'z ixtisosligidagi texnik munozaralarni ham tushuna oladi

- Ingliz tili ona tili bo'lgan kishilar bilan to'liq tushunarli va rang-barang tarzda ikkala tarafga ham qiyinchilik tug'dirmasdan muloqot qila oladi.

- Keng ko'lamdagagi mavzulardagi chuqur matnlarni yoza va so'ralgan mavzudagi o'z fikrini turli variantlarni ijobjiy va salbiy taraflarini tushuntira oladi.

- **Grammarikadagi asosiy bilish kerak bo'lgan unsurlar:** tugallangan zamonlar, mixed conditionals, xozirgi zamondagi modallar, iboralar, o'zlashtirma gaplar, wish, relative clauses

C1 ADVANCED (YUQORI) IELTS 7

- Keng ko'lamdagagi qiyin va uzunroq matnlarni tushuna oladi.

- Fikrlarni ravon va kutilmagan tarzda, so'zlarni qidirmasdan yorita oladi.
- Tilni ijtimoiy, akademik va professional maqsadlarda moslashuvchan ravishda ishlata oladi.
- Murakkab mavzularda chuqur matnlarni aniq va yaxshi tuzilgan holda yoza oladi, tuzilishdagi shakllar va bog'lovchi qo'shimchalar (gaplarni bog'lovchi so'zlar)ni nazorat qila oladi
- **Grammarikadagi asosiy bilish kerak bo'lgan unsurlar:** inversiya, mixed conditionals, o'tgan zamondagi modallar, barcha zamondagi majxul nisbatlar, iboralar (barcha turlaridan), wish/if only afsuslanish ma'nosida

C2 PROFICIENT(DEYARLI ONA TILIDEK) IELTS 8-9

- Eshitilgan va o'qigan **deyarli** har bir narsani **qiynalmay/oson** tushuna oladi
- Og'zaki va yozma manbalardan ma'lumotlarga xulosa qila oladi, ma'lumotni aniq darajada namoyish qilish jarayonida dalil va ta'rif yasay oladi
- Xattoki eng murakkab holatlarda ham o'zini kutilmagan tarzda, o'ta ravon va aniq, ma'noning nozik farqlariga amal qilgan holda muloqot qila oladi.

TADQIQOT NATIJALARI VA MUHOKAMA

O'qitish tamoyili.

O'quv xonasida bajariladigan tabiiy o'rghanishning fikrlari, ishonchlari va usullar hamkorligidagi umumiyligining yig'indi jamlanmasidir.

O'qitish strategiyasi.

Keng izohli termin rejasi hisoblanib ko'zlangan maqsadga erishish yo'lidagi aniq o'qitish qolipi.

O'qitish metodi.

Biron bir narsani bajarishda sistematik usul. Mantiqiy rejaning bosqichma bosqich borish yo'naliishi. Juda samarali usul. O'qitish texnikasi juda yaxshi belgilangan ish tartibining maxsus faollik va vazifani amalga oshirishga asoslangan kreativ yondashish.

Alovida shug‘ullanish tamoyili.

Bunda o‘quvchidan alovida va yolg‘iz o‘zi shug‘ullanishni talab qilanadi, maqsad o‘quvchining muammoli vaziyatni mustaqil hal qila olishdir.

Aniq o‘qitish tamoyili

Bu yerda shuhbasiz o‘qituvchidan aniq gapirib berish va ko‘rsatish yoki namoyish qilishi talqin qilinadi.

Tartibli tamoyil.

U chegaralanadi, o‘qituvchining munozarali muhokamasi o‘quvchilar ishtirokida ko‘zlangan mavzu bo‘yicha asoslanadi.

Hamkorlikda ishlash tamoyili.

Guruh, jamoa, sherikdoshlik asosida ishlash va guruh muhokamasi; hamkorlik usuliga tayanadi.

Interaktiv tamoyili.

Bu tamoyilda interaktiv sinfda ko‘proq o‘quvchilar gapiradilar va o‘qituvchi roli kamroq.O‘quvchilarga o‘qituvchi va boshqa o‘quvchilar bilan interaktiv kirishishga ruxsat beriladi.

Xulosa qilarkanmiz, yuqoridagi har bir maqsadli qo‘llanilgan dars usullari o‘quvchining qaysidir mahoratini yuzaga chiqarishga yordam beradi, masalan, deduktiv va induktiv o‘rganish sohalari o‘rganuvchining ichki va tashqi bilim kunikmalarini rivojlantirib o‘quvchini kreativ fikrlash o‘rganish va tahlilash usullariga yo‘naltiradi. Demak o‘qituvchi o‘z prinsipi asosida o‘zining rejalashtrilgan dars mashg‘ulotining maqsad-tamoyilidan kelib chiqqan holda saralab olingan metod usullami individual yoki jamoa tarzidagi o‘quv shakliga joriy etganda umumiyl jonlanish ya’ni o‘sish suratini qadamma-qadam kuchaytirib boradi. Biz pedagoglar shuni yaxshi tushunamizki ingliz tili darsida faqat bitta metod yoki usul bilan chegaralinib qolishimiz munikin emas qaysiki o‘quvchini qiyin ahvolga solib qo‘yadigan vaziyatdir bu. O‘qituvchi - pedagog bunday bir xillik modelidan qochish va yangidan yangi kompetentlik samadorligini oshirib borish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Jalolov J. "Ingliz tilini o'qiish metodikasi" (darslik) T.- 2012
2. Hoshimov O‘., Yoqubov I. "INGLIZ TILINI O'QITISH METODIKASI" (o‘quv qo‘llanma) T.-., Sharq Nashriyoti. 2013
3. Penny Ur "A Course in Language Teaching: Practice of Theory" Cambridge Teacher Training and Development. 2009
4. <https://monster-evo.ru/uz/student/metody-priemy-raboty-na-uroke-angliiskogo-yazyka-metody-i-priemy/>
5. <https://telegra.ph/Ingliz-tili-darajalari-CEFR-IELTS-nima-va-darajangizni-oshirish-uchun-aynan-nimalar-organish-kerak-01-11>